



## QUVA TUMANI JOY NOMLARINING STRATIGRAFIK TAHLILI (QUVASOY SHAHRI MISOLIDA)

**Alijonova Yodgoroy Toirjon qizi**

*Andijon davlat pedagogika instituti talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Farg'ona viloyati Quva tumanining Quvasoy shaharchasini geografik joy nomlarini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, unda shaharchagi joy nomlarining (toponimlarining) tabiiy geografik xususiyatlari, tarixiy nomlari va ularning kelib chiqishi tarixi ochib berilgan. Tuman toponimlari tabiiy geografik xususiyatiga va tarixiy kelib chiqishiga ko'ra nomlangan holda o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** Farg'ona, Quva, Quvasoy, Arsif, Bog'bon, Bo'ston, Valik, Do'stlik, Yoshlik, Zebiniso, Kokilon, Lashkar, Muyan, Navoiy, Namuna, Nayman, Xuvaydo, Yangiobod, Qo'rg'oncha, Qalacha.

**Kirish:** Geografik nomlar ma'lum tarixiy davrda yuzaga keladi, tarixiy voqealarning xronologik guvohi hisoblanadi. Toponimlar vaqt davomida shakli va mazmuni bo'yicha o'zgarib boradi, aniq tarixiy voqealarga bog'liq ravishda hududiy tarqaladi. Urushlar, aholi migratsiyasi, etnik jarayonlar mintaqa toponimiyasida o'zining izini qoldiradi. Har bir tarixiy davr o'zining ma'lum geografik nomlar qatlamini- stratigrafiyasini yuzaga keltiradi. Bu jihatlari bilan toponimika tarix fani bilan uzviy aloqada rivojlanib boradi.

Geografik nomning asl ma'nosini (etimologiyasini) aniqlashda uni tarixiy paydo bo'lgan davri bilan birga o'rganish maqsadga muvofiqdir. Har bir tarixiy davr geografik nomlarning muayyan qatlami (stratigrafik) ni hosil qilgan, aniqrog'i har bir tarixiy qatlamning joy nomlarida o'ziga xos "izi", "tamg'asi" mavjud, bu haqida ikkinchi bobda batafsil to'xtab o'tiladi.

Tarixiy ma'lumotlar har doim ham nomlashning tarixiy jarayonini kuzatish va tiklash imkonini bermaydi. Shu sababdan ko'pincha toponimik ma'lumotlarni tarixiy voqea-hodisalarni aniqlashda qo'shimcha manba sifatida foydalanish yaxshi natija beradi.

**Quva** — [Farg'ona viloyati](#) Quva tumanidagi shahar (1974-yildan), tuman markazi. Farg'ona shahridan 40 km shimoliy-sharqda joylashgan. Eng yaqin temir yo'l stansiyasi Quva (4 km). Aholisi 40 ming kishi (2005-yil statistikasiga ko'ra). [Farg'ona vodiysidagi](#) eng qadimiy shaharlardan biri hisoblanadi.

**Quvasoy** — [Farg'ona viloyatidagi](#) 4 ta [shahardan](#) biri. Quvasoy shahri 1954-yilda tashkil topgan. Shahar markazi Quvasoy shahri. [Farg'ona shahridan](#) janubi-sharq tomonga 22 km masofada joylashgan bo'lib, Farg'ona shahri, Quva tumani, [Farg'ona tumani](#) hamda [Qirg'iziston](#) respublikasi bilan chegaradosh. Umumiy yer



maydoni 264 km<sup>2</sup> ni tashkil qiladi. *Ma'muriy hududiy tuzilishi* jihatidan 36 ta aholi yashash punktlariga bo'linadi.

1-jadval.

#### Quvasoy shahri ayrim joy nomlarining stratiagrafik taxlili

Joy nomlari	Mahalliy aholi joy nomiga bergan ta'rifi	Mos qatlami
Asrif	Arsif tarixi asosan "Arsi" so'zi turkiy tildan olingan bo'lib Avliyo Zoxid ma'nosini anglatib, Arsif shu nom bilan bog'liqdir. Maxalliy xalq Arsifda ko'plab avliyolar yashab o'tganligini aytishadi. Bir xilgi manbaalarda Quva podshosi Kaykubot bu erlarning xushmanzaraligini ko'rib o'zi uchun Ark qurgan. "Arz purs" ya'ni forsiy tildan olingan bo'lib, Arz so'raydigan joy deb ta'kidlangan, keyinchalik Arsif nomi kelib chiqqan.	Turkiy
Bog'bon	Axolining asosiy va ko'pchiligi bog'dorchilik va uzumchilik bilan shug'ullanishi munosabati bilan ushbu maxallaga Bog'bon nomi berilgan.	Yangi qatlam
Bo'ston	O'zlashtirilmagan erlarga aholi ko'chib borib, u erlarni mevazor bog'larga aylantirganliklari uchun Bo'ston qishlog'i deb atalgan.	Yangi qatlam
Valik	Valik qishlog'ida ilgari Valiylar yashab o'tganligi sababli, keyinchalik Valik deb atalgan.	Sug'diy
Do'stlik	Har xil millatlar vakillari xamdo'stlikda yashashganligi sababli Do'stlik deb yuritilgan.	Yangi qatlam
Yoshlik	Yoshlik maxalla fuqarolar yig'inining nomlanishiga sabab, ushbu maxallada asosan ko'pchilikni yoshlar tashkil qilganligi sababli, Yoshlik deb atalgan	Yangi qatlam
Zebuniso	Taniqli insonlar nomlarni abadiylashtirish maqsadida Zebuniso deb ataladi	Yangi qatlam
Kokilon	Kokilon qishlog'ining o'rtasidan katta ariq o'tgan bo'lib, shu katta ariqdan Kokilli ilon o'tgan ekan, shuning uchun ushbu qishloqning nomi Kokilon deb yuritiladi.	Forsiy
Lashkar	Lashkar ilgari Marg'ilonda navkarlar mahallasi bo'lib, ularga Quvasoy shahrining ushbu qishlog'ining erlardan ulush ajratib berilgan ekan, ular shu erlarda yashashgan shunga asoslanib lashkar deb atalgan.	Arab
Muyan	Mo'yon Quvasoy shahar kengashiga qarashli qishloq. Mo'yon so'zi forsiy tilda "miyon"- "o'rta" so'zi bilan aloqador, shuningdek YAjob tilida Miyon "qishloq" degan ma'noni bildiradi.	Mo'g'ul
Navoiy	Buyuk ajdodlarimiz va mutafakirlarimizni	Turkiy



	nomlarini abadiylashtirish maqsadida A.Navoiy nomi berilgan.	
Nayman	Ilgari ushbu xududda Nayman qabilasi yashaganligi uchun ushbu qishloqqa "Nayman" nomi berilgan, Toponomik ob'ektlarga nom berish maqsadida 2009 yildan O'rta-Nayman SHFY bo'lgan.	Mo'g'ul
Xuvaydo	Buyuk ajdodlarimiz va mutafakirlarimizni nomlarini abadiylashtirish maqsadida Xuvaydo nomi berilgan.	Turkiy
Qo'chqorchi	Ushbu qishloqda Qo'chqorota degan avliyo odam o'tganligi sababli qishloq Qo'chqorchi deb yuritilgan. Xattoki qabristoni xam Qo'chqorota qabristoni nomi bilan ataladi.	Arab
Qalacha	Farg'ona-Quva eski yo'lining 12 kmning chap tomonida taxminan 1700-1750 yillarda Marg'ilon to'ramlarining 9 paxsa devor bo'lgan qal'acha ya'ni qo'rg'oncha mulki bo'lgan bu kichik qal'a bo'lganligi uchun buyuk ipak yo'lining Xitoy, Qo'qon, Andijon tomonlarga boruvchi savdogarlarga shu kichik qal'ada xordiq chiqaramiz deb to'xtashib dam olishgan. Shundan kelib chiqib ushbu kichik qal'a, Qalacha deb yuritilgan	Forsiy
Isfayram-soy	Isfayramsoy qishlog'ining tarixi, oldindan yashash uchun er uchastkalari ko'p berilganligi sababli, Chek qishlog'i deb atalgan, 2011-yili toponomik ob'ektlarga nom berilishi sababli ushbu qishloqdan katta Isfayram soy oqib o'tganligi sababli "Isfayramsoy" deb ataladi.	So'g'diy
Yangi-obod	2003 yil avgust oyidan shahar xokimining qarori bilan Arsif qishloq fuqarolar yig'ini tarkibidan ajratilgan. Yangi uy-joylar berilib, axoli tomonidan obodonlashti-rilganligi sababli, Yangi-obod nomi berilgan	Yangi qatlam
Sufon	Fors tilidan olingan bo'lib, sufon ya'ni suv koni degan ma'noni bildiradi. Ilgari ushbu hududda 3 ta suv ko'llari bo'lgan, hozirgi kunga kelib ushbu ko'llar qurib qolgan, lekin hozirgi kunga qadar Sufon deb atalib kelmoqda	Arab
Polmon	Ilgari ushbu qishloqda aholi ko'chib kelib yashamasdan oldin Polvonbek o'z oilasi bilan yashab o'tgan ekan, shunga asoslanib Polvon deb atalgan, hozirgi kunga kelib Polmon deb yuritilmoqda.	Slavyan

Geografik nomlar albatta biror xalq tilidan qo'yiladi, shuning uchun har bir geografik nomning etnologik asosi mavjud bo'ladi. Bu erda geografik nom etnonim bo'lishi (xalq, urug', qabila) shart emas. U tabiiy, iqtisodiy-geografik toponimlarda





ham ma'lum xalq tilidan qo'yilgan bo'ladi. Shuni hisobga olib har qanday geografik nomning qaysi xalq tilidan qo'yilganligiga e'tibor qaratiladi. Bu jihatdan toponimlarni etnologik jihatdan tadqiq etishning ahamiyati juda kattadir.

Biroq bu usulni qo'llashda ham nihoyatda sinchikovlik talab etiladi. Sababi, etnooykonimlar (urug', qabila, millat, xalq nomlari bilan atalgan joy nomlari) har doim ham shu erda yashagan xalqning (etnosni) nomini bildiravermaydi, Masalan, Ruminiya qachonlardir bu erni bosib olgan rimliklar nomi bilan atalsa, Boburdan so'ng Farg'ona va Samarqandda qolgan turklar o'zlarini o'zbeklar deb, vatandoshimizni Hindistonda tuzgan davlati esa "Buyuk mo'g'illar imperiyasi" deb nomlanganligini keltirish kifoya.

**Xulosa.** Geografik nomlarning tarixiy tasnifida toponimning qaysi lug'aviy-geografik qatlamga mansubligi tahlil qilinadi. Joy nomlari aniq bir tarixiy sharoitda paydo bo'lib, kelib chiqishi jamiyat hayoti, hududda yashayotgan yoki qachonlardir yashagan xalqlar tili bilan chambarchas bog'liq. Aniqroq aytganda, har bir tarixiy davr o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini uning geografik nomlarida ham ko'rish mumkin. Geografik nomlar tarkibidagi mavjud lug'aviy-geografik qatlam bo'yicha Respublikamizda keng tarqalgan 7 ta qatlamlar ajratilgan. Ular Sug'diy, Forsiy, Turkiy, Arab, Mo'g'ul, Slavyan, YAngi qatlam. Yuqorida keltirilgan jadvalda Quvasoy hududidagi ayrim jon nomlarining stratigrafik taxlili keltirildi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ахдоадалиев, Ю. (2018). Топонимика ва географик терминшунослик Scientific Journal Impact Factor (SJIF 2022=4.63) Passport: <http://sjifactor.com/passport.php?id=22230>
2. Ахдоадалиев, Ю. (2011). Фаргона вилояти топонимлари.
3. Алимова, Ш. А., & Ниёзова, И. Н. (2021). Бизнес-коммуникации в системе управления промышленных структур. Academy, (1 (64)), 55-57.
4. Shamsiya, A. (2023). HR MANAGEMENT AND COACHING IN THE INNOVATIVE ECONOMY AS A METHOD OF BUSINESS MANAGEMENT. Modern Science and Research, 2(10), 712-717.
5. Abidovna, A. S. (2024). FORMATION AND DEVELOPMENT OF CAREER AS PERSONNEL TECHNOLOGY OF HUMAN RESOURCE MANAGEMENT. Gospodarka i Innowacje., (45), 327-332.
6. Abidovna, A. S. (2024). THE IMPACT OF E-ACCOUNTING IN MODERN BUSINESSES.
7. Abidovna, A. S. (2023). Priority directions of analysis of channels of promotion of the main activity of the enterprise and separate communication programs. Gospodarka i Innowacje., 42, 369-374.



8. Алимova, Ш. А., & Халимова, Д. Р. (2021). СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ СТРАТЕГИЙ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПОЛИТИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. In *Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации* (pp. 340-344).
9. Abidovna, A. S. (2023). MONTE CARLO MODELING AND ITS PECULIARITIES IN THE IMPLEMENTATION OF MARKETING ANALYSIS IN THE ACTIVITIES OF THE ENTERPRISE. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 375-380.
10. Shadmanov, K. (2023). HISTORICAL PAGES OF FORMATION OF ETHICS IN LATE RENAISSANCE ENGLAND. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(9), 75-86.
11. Шадманов, К. Б. (1979). Латинизмы в английском языке эпохи позднего Возрождения (Doctoral dissertation, КБ Шадманов).
12. Kurban, B. (2019). Shadmanov Formation of new integral world outlook and English Renaissance philosophy of language: problems of comprehension of semiotic reality.
13. Shadmanov, K. B. (2024). SPECULATIONS ON PHILOSOPHY OF THE CONCEPT OF HUMAN NATURE AFFECTIVITY OF BERNARD DE MANDEVILLE.
14. Shadmanov, K. B. (2023). ETHICS OF LATE RENAISSANCE ENGLAND, ITS PLACE IN HISTORY AND PHILOSOPHY. *Аль-Фараби*, 81(1), 69-84.
15. Shadmanov, K. (2022). EASTERN TRANSLATED LITERATURE'S PLACE IN RENAISSANCE CULTURE DEVELOPMENT OF THE WEST. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(11), 350-356.